

Ona yurti - oltin beshig

# TONG Yulduzi

№45 (66378)  
2002 yil  
4 noyabr,  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqq boshlagan.

## Sog' yurak - tog' yurak

Xabaringiz bor, yaqinda yurtboshimizning «O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish

Ayniqsa, qishloq joylarda bolalar sportining moddiy bazasini shakllantirish, zamonaviy sport

ularning malakasini oshirish borasida Respublika Milliy olimpiya qo'mitasi, sport federatsiyalari, klub

## YOSHILIK O'KTAM BO'LSA...

jamg'armasini tuzish to'g'risida»gi Farmoni matbuotda, O'zbekiston televideniyesida e'lon qilindi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq hamda o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini shakllantirishning g'oyat muhim sharti sifatida bolalar ommaviy sportini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi.

Jamg'armaning asosiy vazifalaridan biri bolalar jismoniy tarbiya va sportini rivojlantirish borasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalar sportini aniq maqsad yo'lida va barqaror avj oldirishga ko'maklashishdir. Shuningdek, bolalarda sportga mehr uyg'otish, sog'lom turmush tarziga amal qilish, ma'naviy va jismoniy kamolga intilishlarida ko'mak berishdir. Bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlay bilish, salbiy ta'sirdan himoya qilish hamda zararli odatlardan halos etish, ularning barqaror fe'l-atvorli, Vataniga mehr-muhabbat va o'z yurti uchun g'urur-iftixor ruhida tarbiyalash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilangan.



komplekslarini barpo etish, ularni zamonaviy sport uskunalari hamda anjomlari bilan jihozlash ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, sport sohasida iqtidorli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport maktablari va markazlaridagi mashg'ulotlarga tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni tashkil etish va ularni tatbiq qilishga ko'maklashish ham jamg'armaning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Shu bilan birga bolalar sporti bo'yicha ustozlar va pedagog kadrlarni mamlakatning yetakchi ilmiy hamda ta'lim markazlarida va chet ellarda tayyorlash, qayta tayyorlab,

va tashkilotlari bilan o'zaro faol hamkorlik qilishga ham e'tibor qaratilgan.

Ushbu farmonni o'qib, juda xursand bo'ldik. Chunki biz Mirzo Ulug'bek tumanidagi sport va harbiy ta'limga ixtisoslashgan 225 - maktabda o'qiymiz. Bizga darslik sifatida sport turlaridan - qo'l jangi, dzyu-do mashg'ulotlari o'tiladi.

Agar o'quvchi sog'lom va baquvvat bo'lmasa, mashg'ulotlarga dosh berolmaydi, tezda charchab qoladi. Shuning uchun ham biz sport bilan doimo shug'ullanishimiz, o'zimizni chiniqtirib borishimiz shart. Sog'lom bo'lsak, hayotimiz ham, orzu-umidlarimiz ham sog'lom bo'ladi. Axir buva-buvilarimiz qayta-qayta takrorlashadi-ku «Yoshlik o'ktam bo'lsa, qarilik ko'rkam bo'ladi» deb.

*Iskandar ODILOV.*



## O'zbekiston Konstitutsiyasining 10 yilligi oldidan

Gazetamizning o'tgan sonlarida Konstitutsiyamizning 10 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan ko'rik-tanlov haqida xabar bergan edik.

Navbatdagi ko'rik-tanlov



«Biz tinchlik istaymiz» mavzusida rasmlar tanlovini o'tkazdik. Unda barcha to'garak a'zolari faol ishtirok etdilar.

Sinfimizda har bayramda devoriy gazeta chiqaramiz. Bu ishga men, Zuhra va Navro'zalar mas'ul. Biz tayyorlagan gazeta barcha ustozlarimizga yoqadi. Ular bizni juda yaxshi ko'rishadi. Ayniqsa, sinf rahbarimiz, ona

beramiz, uni mukammal egallash esa albatta o'quvchining o'ziga, iqtidoriga bog'liq. Saule ana shunday ajoyib iqtidor egasi. Unga faqat omad tilayman,- dedi hayajon bilan to'garak rahbari Rohatoy opa Xolboyeva.

Tengdoshingiz, Saule Jiyenboyeva Respublika bosqichiga yo'llanma oldi. U hozircha hal qiluvchi bosqichda ishtirok etish uchun qanday rasmlar chizishni bilmaydi. Biroq,

# G'OLIBA QIZ SAULE

Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. Unda Hamza tumanidagi 282-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi Saule Jiyenboyeva birinchi o'rin

tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nargiza opa, matematika o'qituvchisi Hamida opa va albatta rasm o'qituvchimiz va to'garak rahbarimiz

Rohatoy opa har bir ishimizga bosh bo'ladilar. Ochiq aytadigan bo'lsam, shahar bosqichida g'olib bo'laman, deb o'ylamagan edim. Chizgilarim hay'at a'zolariga ma'qul bo'lganidan juda xursandman. O'sha kuni menga so'z




sohibasi bo'ldi. Fursatdan foydalanib, g'oliba qiz va uning ustozini bilan suhbatlashdik:

- Men rasm chizishga qiziqaman. Shuning uchun ham maktabimizda tashkil etilgan «Yosh rassomlar» to'garagiga qatnayman. Ustozim-Rohatoy opa Xolboyevadan tasviriy san'atning sirlarini qunt bilan o'rganyapman. To'garagimizda yigirmadan ortiq rasm chizishga qiziquvchi o'quvchilar bor.

Yaqinda maktab miqyosida Konstitutsiya kuniga bag'ishlab


berishdi. Aytadigan gaplarim ko'p edi. Biroq, hayajonlanganimdan gapirolmadim. Faqatgina «ustozlarimga rahmat» deya oldim, xolos...

- Shogirdim Saule juda tirishqoq, o'z ustida tinimsiz izlanadi. Ko'p o'qiydi, o'rganadi. Har bir aytgan so'zlarimga diqqat bilan quloq soladi. Saule shunday hislatlar bo'lgani uchun ham unga g'oliblik nasib etdi. Biz ustozlar har bir o'quvchiga birdek bilim



shuni yaxshi biladiki, chizgilarida albatta baxtimiz qomusi o'z aksini topadi.

*Feruza SOYIBJON qizi.*



Biz tabiatni «Ona tabiat» deb ataymiz. Bu bejiz emas, albatta. Saxiy tabiat o'z ne'matlarini bizga in'om etadi. Undan oqilona foydalanish esa bizning burchimizdir.

Biroq, keyingi paytlarda befarqligimiz natijasida ona tabiatga ziyon yetkazib qo'yyapmiz.

Buning oqibatida ekologiya buzilyapti. Bu albatta yaxshilikka olib kelmaydi.

Ekologiya haqida so'z ochilganda, hammamizning ko'z oldimizga Orol dengizi kelsa

Bir kuni anhor bo'y lab ketayotsam, bir xonadondan anhor tomon quvur ulab qo'yilganiga ko'zim tushib qoldi. Quvurdan qanday suv chiqayotganiga qiziqib, yaqinroq

borib qaradim. Ne ko'z bilan ko'rayki undan chiqayotgan suv - mag'zava ekan. Bu ham yetmagandek, anhor bo'yiga xonadondan chiqqan turli chiqindilarni tashlab qo'yishibdi. Uning shundoqqina yonginasida esa mahalla bolalari cho'milishar edi...

Shunda beixtiyor bu vijonimning gaplari yodimga tushdi:

## Hayot beshigisan, ONA TABIAT!



ajabmas. Eng achinarlisi, shunday katta dengizning deyarli yo'q bo'lib ketishidir. Natijada Orol dengizi atrofida yashaydigan insonlar ziyon ko'rmoqdalar. Turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ajab emas, olimlarimizning sa'y-harakatlari tufayli Orolimiz yana o'z holiga qaytsa.

Orolni qo'ya turaylik. O'zimizning yon atrofimizga bir nazar tashlaylik. Masalan, bizning «Chig'atoy» ko'chamizdan Kaykovus anhuri oqib o'tadi. U ko'pgina xonadonlardan, jumladan, bizning hovlimizdan ham aylanib o'tadi. Suvning shu qadar jilvakorligidan, uyimizga kelgan mehmonlar ham lol qoladilar.

«Bolaligimizda issiqqina yopilgan nonlarni ariqdagi suvga bo'ktirib yer edik».

Endi-chi? Atrofimizni sarishtalash o'rniga, uni bulg'ashga o'rganib bormayapmizmi? Bugun ona tabiatga qanday munosabatda bo'lsak, ertaga undan o'z munosabatimizga yarasha javob olishimizni unutmaylik.

Axir, bizni o'rab turgan borliq tabiat beshigida ulg'ayadi-ku. Tabiat hamisha o'z vazifasini fidokorona bajarib kelgan. Biz ham tabiatni asraylik va bezaylik. Bu bizning muqaddas burchimizdir.

**Zilola RUSTAMOVA,**  
Toshkent shahar, Sobir  
Rahimov tumanidagi  
261 - maktabning 10- «A» sinf  
o'quvchisi.

Prezident asarlarini o'rganamiz

## MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan  
sonlarda.)

Mulkdor odamning jamiyat ichida, xalq orasida faqat boyligi bilan emas, balki yuksak ma'naviy fazilatlari bilan ham ajralib turishi zarurligi, shaxsiy va oilaviy farovonlikka erishish imkoniyati har kimning o'z qo'lida degan hayot haqiqatini zamonaviy dunyoqarash sifatida shakllantiradi. «Har bir fuqaroning farovonligi — butun jamiyatning farovonligidir» g'oyasini ilgari suradi.

### 5. Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasi

O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi — ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi.

Milliy istiqlol mafkurasining bosh g'oyasida ozodlik tushunchasining ustuvor va yetakchi o'rinda turishi Vatan Mustaqilligi barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug' kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi.

### 6. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari

Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasidan kelib chiqadi va o'zining ma'no-mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

(Davomi bor.)



**QIZLAR TEGIR MOYI**



jismoniy tarbiya o'qituvchimiz Zuhra opa Rahimova boshchilik qildilar. «Alpomish, Barchinoy avlodlarimiz» deya shior aytib davraga kirib kelgan yosh sportchilar «jonli piramida» yasab, yig'ilganlarni hayratda qoldirishdi. So'ngra maktabimizda

faoliyat ko'rsatayotgan sport to'garaklari qatnashchilari o'z mahoratlarini namoyish etishdi. 5 - «A» sinf qizlarining ajoyib raqslari davramizga fayz kiritdi. Maktabimiz sportchilari tuman miqyosidagi ko'rik-



## UMID NIHOLLARI

Ilgarilari men sportga umuman qiziqmasdim. Yaqinda maktabimizda bo'lib o'tgan «Umid nihollari» sport musobaqalarini tomosha qilib, fikrim o'zgardi: Sog'lom, baquvvat ulg'ayishni xohlagan har bir bola sport bilan do'stlashishi shart ekan, degan xulosaga keldim.

«Umid nihollari» ko'rik-tanlovini o'tkazishga



tanlovda ham g'olib chiqqanliklari haqidagi xabarni eshitib, juda xursand bo'ldik. Kecha so'ngida «Umid nihollari»da faol ishtirok etgan umidli sportchilarimizga «Faxriy yorliq»lar topshirildi. Shu kundan boshlab men ham sport bilan shug'ullanishga o'z-o'zimga so'z berdim.

**Dilrabo YUNUSOVA,**  
Poytaxtimizdagi  
249 - maktabning  
8- «A» sinf o'quvchisi.

### YANGI KITOBLAR KUTAMIZ

Har gal yulduzli osmonga ko'z tashlaganimda, xotiramga sevimli adibimiz Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» romani keladi. Dadamning kutubxonasidan adibning kitobini olib qayta-qayta o'qiyman. Har gal undan yangi bir ma'noni uqqandek bo'laveraman.

Yaqinda adibimiz 74 bahorni qarshiladilar. Fursatdan foydalanib, ularni ayyomlari bilan qutlayman. Yozuvchimizdan «Yulduzli tunlar»dek ajoyib asarlarni kutib qolamiz.

**Umida AHMAD XO'JAYEVA,**  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
18 - maktabning 7- «D» sinf  
o'quvchisi.

### TA'TILINGIZ MAZMUNLI O'TSIN

Mana birinchi chorak ham yakunlanib qoldi. Yozgi ta'tilda duradgorlik to'garagiga qatnashni boshlab yuborgandim. Ustozimiz bizga stul, stol, eshik va kitob javonini yasashni o'rgatgandilar.

Endilikda biz bunday buyumlarni hech qiynalmay yasay olamiz. Navbat murakkab duradgorlik ishlariga keldi.

Kuzgi ta'tilda duradgorlik bilan jiddiy shug'ullanmoqchiman. O'rtog'im O'tkir ham bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlay olgan. U san'atkorlik to'garagi a'zosi. Maktabda bo'ladigan barcha tadbirlarda o'z qo'shiqlari bilan faol qatnashadi. Uning qo'shiqlari barchamizga birdek yoqadi.


Xullas, ta'tilimiz mazmunli va unumli o'tishiga harakat qilamiz.

**Shahobiddin NORQULOV,**  
Jizzax viloyati, Paxtakor tumanidagi 8-o'rta maktabning  
7- «V» sinf o'quvchisi.

Bir-biriga umuman begona insonlarning juda o'xshashligini men hech tasavvur qila olmasdim. Biroq, o'zim shuning shohidi bo'ldim. Bu yil kirish imtihonlarini omadli topshirib, oliy o'quv yurtiga qabul qilinganimda, birinchi bosqich

## O'XSHASH CHEHRALAR

talabalari orasida qiziqchi Valijon Shamsiyevni uchratib qoldim. Ammo negadir u yoshroq ko'rinardi. Avvaliga hayron bo'ldim. Keyin ko'nglimdan, balki u Valijonning ukasi yoki qarindoshidir, degan o'y o'tdi. Qiziqchimizga ikki tomchi suvdek o'xshash bu yigit Sherzod Akramov ekan. U 1982 yil 12



fevralda Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani, To'darboq' qishlog'ida, oddiy o'qituvchilar oilasida tug'ilgan. Sherzodning yurish-turishi, so'zlari, qarashlari, jilmayishi hattoki ovozi ham aynan Valijonning o'zi. Shunisi qiziqki, u Valijon kabi iqtidorli kulgu ustasi. Har kuni yangi-yangi hazil gaplar gapiradigan, yuzidan tabassum arimaydigan Sherzodga barchamiz

«Valijon» deya murojaat qiladigan bo'ldik. Tadbirlar ham uning ishtiroki bilan yanada jonliroq va qiziqarliroq o'tyapti.

*Gulnoza AMINOVA,  
Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, «O'zbek  
tili va adabiyoti» fakultetining  
1-«B» guruhi talabasi.*

Yaqinda buvijonim betob bo'lib qoldilar. Biz ularni shahardagi markaziy shifoxonaga olib bordik.

U yerdagi shifokorlar buvijonimni yaxshilab tekshirishdi-

## QO'LINGIZ DARD KO'RMASIN!

da, dori- darmon yozib berishdi.

Shifokorlarning shirinso'zligi buvijonimga ham, bizga ham juda yoqdi. Ayniqsa, bosh hakim Subxon aka Jo'rayev, shifokorlardan Salomat Mo'minova, hamshira Zamira Muhammedovalarning mehribonchiligi, har qanday dardmand insonning dardiga shifo bo'lishi aniq.

Bundan tashqari, shifoxonaning ozodaligi, saranjom-sarishtaligini aytmayizmi? Hatto deraza oldida turgan gullar ham barchaga salomatlik tilab turganday go'yo.

Shifo maskanining bunday fayzli bo'lishida albatta Subxon aka Jo'rayevning xizmatlari katta. Ularga va barcha shifokoru hamshiralarga «qo'lingiz dard ko'rmasin» degim kelyapti. Chunki ularning sa'yi-harakatlari bois buvijonim tezda sog'ayib ketdilar.

Kelgusida men ham ana shunday shirinso'z va tajribali shifokor bo'lishni ko'nglimga ntugib qo'ydim.

*Husniddin XIDOYATOV,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi  
1 - maktabning 7-sinf o'quvchisi.  
Suratda: Subxon JO'RAYEV.*



Darhaqiqat, she'riyatga oshno bo'lgan inson nazm javohirlarini terayotib, asar muallifi ruhiyatiga tushib qoladi. Keyingi kunlarda marhum shoir

Muhammad Yusufning she'rlarini mutolaa qiladigan, ularga bastalangan qo'shiqlarni tinglaydigan bo'lib qoldim. Aslida odamzodning to'kilgan sochidan tortib olingan tirnog'igacha ruhi saqlanib qoladi. Shuning uchun ham ularni yerga ko'mmoq darkor. Qalbidan, yurak tubidan

to'kilgan misralar-chi?

Ular ham ruhiyatning bir parchasi.

Insonning ichki

kechinmalari-yu dardlari misralarga jo bo'lgani bois kitobxon darhol o'shanday holatni

boshidan kechiradi. Men ham marhum shoir kitoblarini o'qib, beixtiyor qalamim qog'ozni qoralay ketdi:


## G'ARIB DUNYO

*(Muhammad Yusufga bag'ishlab)*

Balki g'aribdurman g'ariblardan ham,  
Nodondirman balki, bilmam o'zligim.  
Lekin bosh egmasman, egmasman bo'yin,  
Bu telba dunyoga bo'lmasman taslim.  
Sen o'zing kimliging bilarmisan, ayt,  
Farishta libosli befavo mohsan.  
Etaging bariga jonlar osig'liq,  
Dono bir darveshga bosh eggan shoxsan.

Buyuklik, donolik da'vo qilarding,  
Saqlay olmading-ku Ulug'bek boshin.  
Chinqirab qolganda yosh Mo'min Mirzo,  
Arta olmading-ku uning ko'z yoshin.  
Sening buyukliging nimada o'zi,  
Mo'ysafidligingmi, barisi riyo.  
Butun boyliklaring sarhisob qilsam,  
Sen asli mendan ham g'aribsan dunyo.

*Gulruh BOBOMULLAYEVA,  
Qashqadaryo viloyati, Koson tumanidagi 2 - maktab  
o'quvchisi.*



## Xushxabar

Men O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida tahsil olaman. Yaqinda yurtboshimiz tashabbuslari

bizga kuylash sirlarini o'rgatibgina qolmay, hayot maktabini ham o'tayaptilar. Izlanuvchanlik, maqsad sari

bilan o'qituvchilar orasida do'stona, samimiy munosabatlar o'rnatilgan. Biror muammo tug'ilsa, ustozlarimizdan

## USTOZ-SHOGIRD DO'ST BO'LSA...

bilan bizga yangi bino qurib berildi. Bino emas, koshona, haqiqiy san'at asari desam mubolag'a bo'lmaydi. Biz talaba yoshlar ham bunday g'amxo'rliklarga javoban yanada yaxshiroq o'qishga, mahoratimizni oshira borishga astoydil harakat qilyapmiz. Avvallari konservatoriyamizda estrada yo'nalishiga unchalik ahamiyat berilmas edi. 2002 yildan estrada musiqasi fakulteti ish boshladi. Bu dekanatda estrada cholg'u ijrochiligi, estrada qonunchiligi va ovoz rejissyorligi kafedralari mavjud bo'lib, estrada cholg'u ijrochiligi kafedrasiga sevimli bastakorimiz - Nadim Norxo'jayev, estrada xonandaligi kafedrasiga taniqli bastakor - Diloram Omonullayeva rahbarlik qilib kelyaptilar. Ustozlarimiz



intilib yashash kabi fazilatlarni Nadim akadan o'rgansak, ahloq-odob, qiz bolalar uchun xos bo'lgan ta'lim-tarbiyani Diloram opamiz o'rgatadilar. O'quvchilar

maslahat so'raymiz. Rektorimiz Bahrom Qurbonov, prorektorimiz Avaz Mansurov, dekanimiz Abduvahob Saxiyev, ustozlarimiz Salohiddin Azizboyev, Oydin opa Abdullayeva, Shahnoza opa Oyxo'jayevalar ana shunday mehribon, mehri bor ustozlarimiz sirasiga kirishadi. Ulardan ta'lim-tarbiya, saboq olayotganimdan faxrlanaman. Boshqa bilim dargohlarida ham xuddi bizdagi singari o'ta samimiy, do'stona ustoz-shogird munosabatlari yo'lga qo'yilsa, foydadan xoli bo'lmasdi.

Ra'no QOSIMOVA,  
O'zbekiston Davlat

Konservatoriyasining 2-bosqich talabasi.

## Ogoh bo'laylik!

Ravshan aka Yoriyev rahbarlik qilayotgan Respublika «Turon» yoshlar teatr-studiyasini ko'pchilik

qarshi yo'naltirilgan.

Yaqinda teatr jamoasi bizning maktabda ham bo'lishdi, 5-9 sinflar

Yoshlarimizning tarbiyasiga, yurish-turishiga, nimalar bilan qiziqishlariga biz e'tibor bermasak, boshqalar, ya'ni turli

## HUSHYORLIKKA DA'VAT - DAVR TALABI

bolalar yaxshi bilishadi. Chunki teatr-studiyasi a'zolari O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti ma'naviyat va ma'rifat markazi va «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati boshlang'ich tashkiloti bilan hamkorlikda ko'plab maktablarda, bolalar maskanlarida ijodiy uchrashuvlar o'tkazib kelyaptilar. Ular I.A.Karimovning «Hushyorlikka da'vat» asari asosida tayyorlangan «O'zligingni unutma» mavzuidagi yangi dasturni 400 dan ortiq tomoshabinlar e'tiboriga havola etishdi. Yoshlar teatr-studiyasining chiqishlari o'ziga xosligi bilan boshqa teatlardan ajralib turadi. Teatrning ijodiy yo'nalishi terrorizm, diniy aqidaparastlik va giyohvandlikka

o'quvchilari bilan terrorizm, giyohvandlik, aqidaparastlik haqida suhbat qurishdi. So'ngra terrorizm malaylari kirdikorlarini fosh etuvchi «Onaizor», giyohvandlik mavzuidagi «Ota faryodi» nomli sahna ko'rinishlari hamda «Mulzam» nomli hajviy ko'rinishlarni namoyish qilishdi. Yoshlarni vatanparvarlik, ona yurtiga, xalqimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, milliy an'alarimiz, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni ular ongiga singdirishga hissa qo'shish studiya jamoasining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadidir. Yurtboshimiz o'zlarining har bir chiqishlarida yoshlarning tarbiyasiga alohida ahamiyat, e'tibor berish lozimligi xususida qayta-qayta to'xtalyaptilar.

diniy ekstremistik kuchlar foydalanib qolishi, ularni nopok yo'llarga boshlashi shubhasizdir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda «Turon» yoshlar teatr-studiyasining olib borayotgan ishlari xayrlidir.

Teatr jamoasi namoyish etgan sahna ko'rinishlaridan o'quvchilarimiz o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olganliklari yuz-ko'zlaridan sezilib turardi. Ularni biz ustozlar ham zo'r qiziqish bilan tomosha qildik. «Turon» teatr-studiyasi jamoasiga amalga oshirayotgan xayrli ishlarida omadlar tilab qolamiz.

Nasiba TURDIQULOVA,  
Toshkent shahar, Siro'ali tumanidagi 322 - maktab o'qituvchisi.

## Mehmonxona

«Dunyo va bolalar» ko'rsatuv boshlovchisi, «Hamma narsani bilishni xohlayman» ko'rsatuvining muallifini taniysizmi? Tanimasangiz,

bizning shiorimiz.

- «Dunyo va bolalar» ko'rsatuvining asl maqsadi?

- Butun dunyodagi bolalarning

Mukarram opa va Olim akalarni o'z ustozim deb bilaman. Ular nutqimni o'stirishda ko'maklashganlar...

- Hayotda kimga o'xshashni orzu

## HAMMASIGA ULGURISHIM SHART

tanishib oling: Saodat Qosimova. Tabiatan juda quvnoq, shodon bo'lsa-da, «yetti o'lchab, bir kesadi»ganlar toifasiga kiradi. O'z kasbining «ustasi» ekanligiga u bilan qilgan suhbatimiz davomida yana bir bor amin bo'ldik.

- Saodat opa, o'zingiz, oilangiz haqida gapirib bering?

- Oilamiz ziyolilar oilasidir. Ota-onam, ikki singlim, ukam - hammamiz buvim bilan birga turamiz. Sharqshunoslik oliygohining arab tili mutaxassisligi bo'yicha 1-bosqich talabasiman.

- Sizni «Yangi avlod»da namoyish etilayotgan ko'rsatuvlar orqali yaxshi taniymiz...

- Meni studiyaga «Katta tanaffus» ko'rsatuvining sobiq boshlovchisi, hozirda «Sport maydonchasi» ko'rsatuvini olib borayotgan Kamola ismli qiz olib kelgan. Saodat bo'lib tanilishimda Sunnatilla aka Qo'ziyevning xizmatlari katta. Ular menga senariy yozish sirlarini o'rgatish bilan birga yo'l-yo'riq ham ko'rsatadilar. Dastlab juda qiynalغانman. Kechasi bilan uxlamay yozgan senariylarimni olib borsam, o'qimasdilar. Bu menga juda alam qilardi, shu bilan birga ko'proq izlanishimga, kunimni kutubxonalarda o'tkazishimga turtki bo'lardi.

- «Yangi avlod» boshlovchilari o'rtasida raqobat bormi?

- Yo'q, umuman yo'q. Biz har qanday vaziyatda ham bir-birimizga yordam beramiz, dalda bo'lamiz. Bir yoqadan bosh chiqarib ishlash -

erishayotgan yutuqlarini boshqa tengdoshlariga o'rnak qilib ko'rsatish.

- Mualliflik ko'rsatuvingizga



qanday vaqt topasiz?

- Kunduzi o'qishdaman. O'qishdan so'ng ishga boraman. Hammasiga ulgurishga harakat qilaman. Chunki haqiqiy jurnalist bo'lish uchun hamma vaqt, hamma narsaga ulgurish kerakda.

- Maktab davringiz haqida ham gapirib bering?

- Birinchi ustozim Nina Aleksandrova birinchi «5»imni qo'yganlarida xursandchiligimdan hammayoqni ag'dar-to'ntar qilishimga oz qolgan...

- Hozirgi kundagi ustozlaringiz?

- Yuqorida aytganimdek, Sunnatilla aka Qo'ziyev, rejissyor Noila To'laganova, montaj sirlarini o'rgatgan Komila Toshmatova, Yulduz Begmatova,

qilasiz?

- Otamdek bir so'zli, onamdek pazanda, g'amxo'r, buvijonimdek mehmondo'st bo'lishni orzu qilaman.

- Jurnalistlarga qancha ko'p til bilsa, shuncha foyda, deyishadi. Siz qaysi tillarni bilasiz?

- Rus, ingliz, arab tillarini bilaman. Mustaqil ravishda fransuz tilini ham o'rganyapman.

- O'zingizni qanday odam deb o'ylaysiz?

- Juda ham ko'ngilchan, ishonuvchanman.

- Orzularingiz?

- Chet elda o'qish - eng katta orzuim.

- Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?

- Mumtoz musiqa jonu dilim. Ko'proq musiqa tinglab, dam olaman.

- Sevimli taomingiz?

- Norin va manti.

- Muxlislaringizga tilaklaringiz?

- «Yangi avlod»ning muxlislari ko'paysin. Hamma o'quvchilar faqat a'lo baholarga o'qishsin va o'yilagan niyatlariga yetsinlar.

Shodiya ABDULLAYEVA suhbatlashdi.



Bozorga daftar olgani borgandim. Didinga mos daftar topa olmadim. «Nega, axir bozor to'la turli xil daftarlar-ku», dersiz? Gapingiz to'g'ri, bozorda daftarlar ko'p. Lekin ularning ustidagi turli xil behayo rasmlar menga ma'qul bo'lmadi. Biz maktabga bilim olish uchun kelamiz-ku. Daftarlarimiz ustidagi rasmlar esa fikrimizni chalg'itadi. Bu mening shaxsiy fikrim. Bu borada boshqalar qanday o'ylashadi?

haligi ayol. Men unga nima deyishni ham bilolmay qoldim. Bu gapni farzandiga ta'lim-tarbiya beradigan onadan chiqayotganini aqlimga sig'dirolmasdim...

Bunday rasmlar bizning o'zbekona urf-odatlarimizga zid. Menimcha, maktablarda, kollej va litseylarda bunday suratli daftarlardan foydalanishni ta'qiqlab

## DAFTARLARIMIZ SIZGA MA'QULMI?

**Diloram ABDULLAYEVA:**

- Daftarlarning sifatiga gap yo'q. Lekin ularning ustidagi chet el kino yulduzlari, qo'shiqchilarining bachkana rasmlari «gap yo'q»ni «gap ko'p»ga aylantirib yuboradi. Muqovasi yaxshi bezatilgan daftarlarning sifati esa talabga javob bermaydi. Qog'ozi yupqa, rangi qoramtir, o'lchami ancha kichik. Mana shu jihatlari yurtimizda chiqarilayotgan daftarlardan ko'nglimiz sovib ketishiga sabab bo'lyapti...

**Jonibek**

**QURBONAZAROV:**

- Turli suratlar bilan bezatilgan daftar tutish o'quvchilar orasida «moda»ga aylangan desam xato bo'lmaydi. Tunov kuni o'qituvchimiz bir bolaning daftari muqovasidagi rasmni ko'rib, uni urishib berdilar. U esa boshqa daftarlar sifatsiz bo'lsa, nima qilay, deya javob berdi.

**Ma'pura USMONOVA,**  
**o'qituvchi:**

- Yaqinda ustida hayosiz rasmlari bor daftar tutib kelgan bir o'quvchimni sekingina tashqariga chaqirib, bu daftarni unga kim olib berganini so'rasam, onasi olib berganini aytdi. Ertasi kuni o'quvchimning onasi bilan gaplashdim. «Men xarid qildim, nima edi? Do'konlarda hech bir ta'qiqsiz, bemalol sotilayotgan bo'lsa. Menimcha, buning hech yomon



qo'yish lozim. Chunki o'quvchining fikri dars davomida turli rasmlarda emas, o'qituvchida bo'lishi kerak.

**Fayzullo XOLIQOV:**

- Biz yurtimizning kelajagimiz. Shunday ekan, ma'naviy barkamol insonlar bo'lib ulg'ayishimiz lozim. Bunday behayo rasmlar bizga ma'naviy zarardir. Ertaga kech bo'lmasligi uchun bu holning oldini bugunoq olishimiz kerak.

**Zilola**

**EGAMBERDIYEVA:**

- Sinfimizdagi o'quvchilarning aksariyati shunday suratli daftar tutishadi. Ulardagi ayrim behayo rasmlarni ko'rib, o'g'il bolalarning oldida uyalib ketamiz. Menimcha, bunday daftarlar O'zbekistonimizda sotilmasligi kerak.

tomoni yo'q, o'g'il bolalar shunday rasmlarni ko'rib ulg'ayishsa, ko'zi pishib boradi. Qolaversa, sifati ham puliga yarasha», deya javob berdi

Mana, ayrim ustozlarimiz, tengdoshlarimiz fikrlari bilan ham tanishdik. Fikrlar turlicha, lekin mazmun-mohiyati bitta - bunday suratli rasmlar ularga ham yoqmas ekan. Qani endi, o'zimizda ham sifat jihatdan chet elnikidan qolishmaydigan daftarlar chiqarilsa, muqovalaridan Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari buyuk sarkardayu shoirlarimizning suratlari o'rin olsa. Biz yoshlar ularga munosib avlodlar bo'lishga intilib yashasak, o'qisak, izlansak. Siz nima deysiz, aziz tengdoshim?

**Alisher ISOMIDDINOV,**  
Alisher Navoiy nomidagi Respublika  
Nafis San'at litseyi o'quvchisi.





Faraz qiling, rasmlar ko'rgazmasidasiz. Ro'parangizda buyuk asar. Mo'yqalamning sehri o'laroq unda bir olam ma'no jo bo'lgan. Rasmga qanday nazar bilan qarasangiz, uni o'shanday qabul qilasiz. Aslida asarni uzoqroqdan tomosha qilish darkor. Shunda rassom mahoratini o'qib olish mumkin bo'ladi. Voqelik va davomiylikdan so'zlaguvchi asar



Peyzaj, natyurmort, portret asarlarini chizishga ishtiyoqmand qizaloq - Dilafro'z Jumasheva 1991 yil 29 iyulda tug'ilgan. U Andijon viloyati, Izboskan tumani, To'rtko'l qishlog'idagi 12 - o'rta maktabning boshlang'ich sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Bolaligimdan rassomchilikka qiziqqanligim bois, Badiiy Akademiya tasarrufidagi Andijon viloyat tasviriy va amaliy san'at litseyining 5-sinfiga qabul



qolmay, yana boshqa davlatlarga ham o'z rasmlarimni jo'natmoqchimiz. Litsey-internatimiz ko'rgazma zalida turli mavzudagi ishlarim ilingan. Ular litseyimizga tashrif buyurayotgan mehmonlar

## "ZARHAL ROMLAR QARSILLA YDI"

domiga tushaverasiz.

Nazaringizda, rasm borgan sari kattalashib, shoira Mukarrama Murodova yozganlaridek, zarhal romlar qarsillab sinayotganday sizni qamrab olaveradi. Unda aks etgan dengiz to'lqinlari sizni ham tebrantirib yuboradi. Halokatga uchragan kema qoldiqlarida, qo'lida mayoq ushlab yordamga chaqirayotgan inson - Sizga aylanadi. Najotdan dom-darak yo'q bo'lishiga qaramay, qalbingizdagi umid chiroqlari o'chmaydi. Orqadan ko'tarilib kelayotgan to'lqinli to'fon ichiga mardlarcha kirib ketishga shaysiz. Ummon qa'ridan qo'rqmaysiz. Ha, mashhur rassom Ayvazovskiyning «To'qqizinchi val» surati shunday jalb qiladi o'ziga...



qilindim,-deydi Dilafro'z. - Badiiy Akademiya tomonidan tashkil etilgan bolalar ko'rgazmalarida faol ishtirok etyapman. Tasviriy san'at o'qituvchisi bo'lib ishlaydigan dadajonim Murodjon aka Jumashevni birinchi ustozim deyman.


-Siz chizgan rasmlar ko'rgazmalari chet ellarda ham bo'lgan ekan-a?

-Ha, Yaponiyada tashkil etilgan «Biz tinchlikni istaymiz» ko'rgazmasida mening qator asarlarim ishtirok etdi. Biroq bu bilangina chegaralanib

e'tiboridan chetda qolmaydi.

-Kelajakdagi orzuvingiz...

-Buyuk rassom bo'lish. Nafaqat manzara, natyurmort, portret, balki sintez, mozaika, ichki kechinmalarim aks etgan abstrakt fantastikalarga ham qo'l



urmoqchiman. Biroq, milliy qadriyatlar ifodalangan rasmlarim bilan ko'proq faxrlanaman.

Yosh rassom Dilafro'zning buyuk orzulari ushalishini chin dildan istab, unga baland parvozlar tiladim.

Muharrama PIRMATOVA.

## ABADYYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

*Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi*

Dunyoning geliotsentrik tuzilishi nazariyasini yaratgan olimning vatani Polshada, uning xotirasiga o'rnatilgan yodgorlikka «Quyoshni to'xtatgan,

tushuntiradigan geotsentrik va geliotsentrik tizimlar o'zaro teng kuchga ega, degan fikrga keladi.

«Geodeziya» asarida esa olim geotsentrizm bilan bog'liq bo'lgan ba'zi nazariyalarning to'g'riligiga shubha bilan qaraganini ochiqdan-ochiq

bayon etadi. Alloma bu fikri bilan dunyoning geliotsentrik tuzilishi

uzoqni ko'ra biladigan, o'z manfaatlarini himoya qilishda hech kimni ayab o'tirmaydigan cherkov kelib-kelib bu ruhoniyning e'tiqod

Bilimim shu yerga yetib keldikim,  
Bilimsizligimni endi tushundim.

*Abu Shukur Balxiy*

Buyuk kishilar olmos yanglig'  
noyob va shu qadar serjilodir.

*Sharq naqli*

Yerni siljitgan odam», deb yozib qo'yilgan. Insoniyat uchun bu qadar ko'p ish qilgan

poydevoriga naqadar dahshatli bomba qo'yganini o'z vaqtida bilolmay dog'da qoldi. Fridrix

# QUYOSHNI TO'XTATGAN ODAM

kishilar tarixda juda kam...

Ana shulardan biri, buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy falakiyot ilmining bu sohasiga Kopernikdan naq yarim ming yil muqaddam ulkan hissa qo'shgan edi. U o'zining ilmiy asarlarida dunyoning tuzilishi masalasida qadimgi Misr olimi Klavdiy Ptolemey (Batlimus)ning nazariyasiga suyansa ham Yerning harakati haqida o'sha davrda hukmron bo'lgan nazariyaga zid



keladigan fikrlarni bayon etgan. Masalan, «Hindiston» asarida «Yerning aylanish harakati falakiyot fani hisoblariga hech qanday zid kelmaydi, chunki Yerda yuz beradigan hodisalar uning harakati bilan birga bir tekisda davom etaveradi», deb mulohaza bildirgan.

«Istagan xil astrolyabiyani tayyorlashning turli usullari haqida» nomli risolasida Abu Said as-Sijziyning astrolyabiyasi to'g'risida so'z yuritganda esa juda muhim xulosaga keladi: «Uning negizi osmon harakatlanishiga emas, balki Yerning harakatlanishiga asoslanganligi uchun men uni juda ham ajoyib kashfiyot deb hisoblayman». Beruniy yoritqichlar harakatini handasaviy izohlash asosida olamning tuzilishini

nazariyasini ishlab chiqishga hissa qo'shdi. U osmon yoritqichlarining harakat trayektoriyasi va shakli ellipsoid ekanligi haqida birinchi bo'lib fikr yuritgan olimlardan. Beruniyning bu bashorati Kopernik undan ancha keyin qilgan kashfiyotni ma'lum darajada oldindan aytishdir. Lekin baribir ilm-fan tarixida geliotsentrik nazariya Kopernikning nomi bilan qolgan va bu chindan ham buyuk kashfiyot edi.

Baland bo'yli, baquvvat, ikki yuzidan qon tomadigan, o'tkir nigohli bu odamga ruhoniyluk libosi sira-sira yarashmasdi. Xoh ishonang, xoh ishonmang, yoshligidan bir umr rohiblik ridosida o'tgan Kopernik ayni paytda cherkovning eng ashaddiy dushmani bo'lgan. Ayyorligu makrda

Engelsday odam «fikrining zalvori, his-tuyg'usining fe'l-atvori, serqirraligi yu zakosiga ko'ra», kimsan titanlarga qiyos qilgan, tarixda kam uchrovchi inqilobchi Kopernik Vatikan adirlaridan boshiga tushishi muqarrar bo'lgan balo-kulfatlardan qanday omon qolganiga aql bovar qilmaydi.

O'rta asrlar yuvropasidagi diniy mutaassiblikning eng qonxo'r jallodlaridan biri bo'lmish Lyuterning o'zi Kopernik haqida «Bu tentak butun astronomiya san'atini ostin-ustun qilmoqchi», deb yengil piching qilib o'tadi, xolos. Darhaqiqat, cherkov Jordano Brunodek insonning hayotiga zomin bo'ldi, Galileo Galileydek dahoning e'tiqodini sindirdi, biroq Kopernikdek dahriyning hatto mushugini ham «pisht» deyolmadi! To'g'ri, uni tushunishmadi, tanqid qilishdi, masxaralab tomoshalar qo'yishdi, ammo Galiley yotgan zax - rutubatli qamoqxona va Bruno yongan gulxan gurullashi oldida bu nima narsa, axir!

*(Davomi bor.)*

## Oqibat

«Jigarim» degan soʻzimga hayron boʻlmang. Andijon shevasida yaqin qarindoshurugʻlarni «jigarim» deyisharkan. Oyim ham bir voqeani aytib berganlari yodimda. Toʻyhashamlarda qoʻy soʻyilib osh berilishi hammaga maʼlum. Qoʻyning jigari esa qovurilib, yaqinlar

# OMON BOʻL, JIGARIM!

bilan isteʼmol qilinadi. Oʻshanday toʻyning birida xolam jigarni piyoz bilan qovuribdilar. Biroq qarindoshlar hadeganda yigʻilaverishmabdi. Shunda xolam: «Tezroq dasturxonga oʻtira qolinglar, jigarlarim ezilib ketdi» deganlarida, ular: «Ha, xizmat qilayotgan qarindoshlaringizga rahmingiz keldimi?» deyishgan ekan. Xolam esa avvaliga tushunmabdilar. Koʻchma maʼnoli gap bilan oʻz maʼnosidagi gapning monand kelib qolgani barchani kuldirib yuborgan ekan...

Ana shunday shod-hurramlik, quvnoqlik, mehr-oqibat hukm suradigan qarindoshlar-jigargoʻshalarni koʻrgani Andijonga bordik. Barcha qarindoshlarnikiga borib, diydorlashdik. U yerda oʻrtoqlarim bilan mazza qilib oʻynadim. Mehribon, muloyim, nasihatgoʻy Oyimxon buvijonimlarnikiga borganda, ularning nevaralari Sayfiddin qattiq betobligini koʻrib xafa boʻlib ketdim. Hol-ahvol soʻrashgach, u quyidagilarni soʻzlab berdi:

- Darsdan soʻng, oʻrtoqlarim bilan futbol oʻynayotgan edik. Birdan oyogʻim toyib, yiqilib tushdim. Bir

amallab uyga yetib oldim. Kim oʻylabdi deysiz xastaligim bunaqa choʻzilib ketishini.

*-Jiddiy jarohatlandingizmi?*

-Avvaliga haroratim borgan sayin koʻtarilaverdi. Dadam shifoxonaga olib borganlarida,

oyogʻimda «Osteomelit» degan kasallik paydo boʻlganini aniqlashdi. Mana shunday qilib, salgina ehtiyotsizligim tufayli ikki oydan beri yurolmay, maktabga ham borolmay yotibman.

*-Darlar nima boʻlyapti?*

- Yaxshiyamki ustozim, oʻrtoqlarim, doʻstlarim bor ekan. Ular kunda kelib, oʻtilgan darslarni menga tushuntirib ketishyapti. Nasib qilsa, yaqinda sogʻayib, otdek boʻlib ketaman. Maktabga ham boraman.

*-Zerikib qolmayapsizmi?*

- E, yoʻq. Buvijonimni bilasiz-ku. Ular tunu kun atrofimda parvonalar. Meni zerikmasin deb, har xil hikoyalar, qiziqarli voqealar aytib beradilar.

*-Sheʼrlar ham yozyapsizmi?*

- Kasalxonada yotgan kunlarim dadam meni zerikmasin deb, kichkina magnitafon olib borgan edilar. Qoʻshiqlar eshitib yotib, mening ham ilhomim kelib ketdi. Ayniqsa, menga parvona boʻlib davolayotgan Andijon viloyat «Tez tibbiy yordam markazi» shifokori Xayrulla aka, Andijon shahridagi 3-polalar shifoxonasi shifokori Quadrat aka, jarroh Bahodir

akalarning mehribonliklari uchun ularga sheʼr orqali rahmat aytgim keldi. Endi maktabga borsam, avvalgidan ham yaxshiroq oʻqishga harakat qilaman. Kelajakda Badriddin

bobomga (joylari jannatda boʻlsin) oʻxshab zoʻr huquqshunos boʻlib, ishlarini davom ettirmoqchiman...

Sayfiddinning bir maromda, maʼnoli gapirishiga qarab turib, uning mittigina joni azob chekayotganiga achinib ketdim. «Boshi yostiqa tekkan inson faylasufga aylanadi», deyishardi. Kichkintoy

Sayfiddin ham hayotga fikrlab, mushohada bilan qarayotgani meni hayron qoldirdi. Uning tezroq sogʻayib ketishini, davramizga, begʻubor bolalikka qaytishini chin dildan istadim.

*Behzod IKROMOV.*

## PARODIYALAR

«Gulbadan»yey, «Gulbadan»,  
Yiqilib tushdim behosdan.  
Davoladi Quadrat akam,  
Shifokor ekan chinakam.

X X X

Qaro koʻzli buvijon,  
Oʻzingiz yaxshi bilasiz.  
Yurakdagi dardimni,  
Soʻrab nima qilasiz?

*Sayfiddin  
BADRIDDINOV,  
Andijon shahridagi  
24-maktabning 2-sinf  
oʻquvchisi.*



## Hormang!

*O'lkamizda kuz. Paxta yig'im-terimi ayni avjiga chiqqan palla. Keng dalalarda javlon urib, kim ko'p paxta terishga musobaqa o'ynayotgan tengdoshlaringiz bilan suhbatlashish maqsadida yo'lga tushdim. Avvalo bolalarning yotoqxonasi tomon yo'l oldim. Suv sepib, tozalab supurilgan hovlida bir-ikkitagina qizlar ko'rindi. Navbatchi qizlar erta tongda turib, hovlini, o'quvchilar ketgach esa, yotoqxonalarini supurib chiqishar ekan. Ulardan o'quvchilar qaysi joyda paxta terishayotganini so'rab, tuproqli yo'ldan dala tomon yo'l oldim.*

- Biz Parkent tumanidagi 35 - o'rta maktabdan kelganimiz,- deydi geografiya o'qituvchisi G'ayrat aka Jo'rayev.- Kelganimizga salkam bir

qo'yganman,- deya suhbatimizga qo'shildi o'zini Oybek Akjigitov deb tanishtirgan o'quvchi. -Sinf rahbarimiz G'ayrat akaga «Tong yulduzi»ga sinfimiz bilan yoppasiga

## ENG ILG'OR TERIMCHI KIM?

oy bo'ldi. Bolalarimiz juda g'ayrat qilishyapti. Oralarida kuniga 65-70 kilogrammgacha paxta terayotgan ilg'orlari ham bor. Iye, ana o'zlari ham kelishyapti, - deya paxtalarini topshirib qaytayotgan o'quvchilarga ishora qildi.

### O'G'IL BOLALARGA YETADIGANI YO'Q!

- Mening ismim Damira. 9- «A» sinf o'quvchisiman. Paxtaga kelishimizdan avval oyim menga, maktab bo'yicha eng ilg'or terimchi bo'lishing kerak, degandilar. Mana, ularning aytganlaridan chiqmay, kuniga 60 kilogrammdan paxta terayapman. Lekin baribir o'g'il bolalar ko'p terishadi. Biz bilan birga kelgan ustozlarimiz Doniyor aka Ernazarov, Dilrabo opa Yo'ldoshevalar ham bizga yordam berish maqsadida paxta terishyapti. Eng yaqin dugonam Nag'ima Begjanova bilan birinchi kundan buyon musobaqa o'ynaymiz. Bir safar u ko'p terib, meni ortda qoldirsa, keyingi safar men ko'p teraman. Bir-birimizdan qolib ketmaslikka harakat qilyapmiz. Tergan paxtamizga yaxshigina haq ham olyapmiz. Men bu pullarimga «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lmoqchiman.

### YOPPASIGA OBUNA BO'LAMIZ

- Obuna uchun men ham pul yig'ib

obuna bo'lamiz, deganmiz. Maktabga borgach, albatta so'zimizning ustidan chiqamiz. Paxta terishga kelsak, men birinchi terimda 80 kilogrammgacha terdim. Yotoqxonaga borsak, charchog'imiz esimizdan chiqib ketadi, chunki u yerda har kuni kechki ovqatdan keyin mazza qilib raqsga tushamiz, kinofilmlar qo'yib berishadi. Ayrim sabablarga ko'ra safimizga



qo'shilolmagan o'quvchilarga rosa alam qiladi-da...

### ZERIKISH NIMALIGINI BILMAYMIZ

- Men Ibragimova Luiza, 10-sinf o'quvchisiman. Bu yerga kelganimizda daladagi oppoq bo'lib ochilib yotgan paxtani ko'rib, shuncha paxtani qachon terib olamiz deb, qo'rqib ketgandik. Hozir qarang, dalalarda paxta deyarli qolmadi. Bu yerda zerikish nimaligini bilmaymiz.

Paxtazorda bir-birimizga har xil qiziqarli voqealar, latifalar aytib, vaqtni qanday o'tib ketganini ham sezmay qolamiz. Kechki ovqatdan keyin o'yin-kulgu bilan ovora bo'lamiz...

### QIZIQARLI VOQEA

- Bu yerda sho'xligimiz yanada ortib ketdi,- deydi 9- «B» sinf o'quvchisi Daulet Abdurahmonov. - Kelganimizning ertasi kuniyoq bolalarning yuzlari ertalab «bezab» qo'yiladigan bo'ldi. Sho'xroq bolalar kechasi qozonning tagidan qorakuya olib kelib, qotib uxlayotgan o'rtoqlarining yuzlariga surib ketishadi. Ertalab o'zlaridan xabarlari yo'q, bir-birlarini ko'rsatib, rosa

kulishadi. Bu qiliqlarimizni katta bo'lganimizda ham eslab, rosa kulib yursak kerak...

### KICHKINA DEMANG BIZNI...

- Men sinfimizda eng bo'yi kichkina bolaman,- deydi Bekjon Ahmedov. - Bolalar dastlab ustimdan rosa kulishdi. Emishki, paxtazorni ichida yo'qolib qolsam,

qidirishmasmish.

Bu gap menga juda qattiq botdi.

«Ha, senlarnimi, s h o s h m a y turlaring,» deb

terimga zo'r berdim. Mana,

mening ustimdan kulgan bolalardan ham ko'p paxta

teryapman. Shuni aytisalar kerak-da,

« K i c h k i n a demang bizni,

ko'tarib uramiz sizni» deb. Endi

ular ustimdan kulishmayapti...

Bolalar men bilan xayrlashib, yana paxtazorga kirib ketishdi. Ularning bir-birlariga hazil qilib, bor ovozlari bilan kulishayotganini ko'rib, havasim kelib ketdi. Ishlab ham, kulib ham aslo charchamaydigan bolalik!

**Ozoda TURSUNBOYEVA,**  
Yuqori Chirchiq tumanidagi  
A.Yassaviy nomli jamoa  
xo'jaligidan tayyorladi.

1. «O'rmon shifokori» deb nom olgan qush?

- a) qur;  
b) qizilishton;  
c) tuyaqush.

2. Qaysi davlat Amir

Temurga oltindan haykal o'rnatgan?

- a) Fransiya;  
b) Angliya;  
c) Hindiston.

3. Nechanchi yildan boshlab «8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni» deb nishonlana boshlandi?

- a) 1923;  
b) 1910;  
c) 1908.

4. Mashhur «Sen yetim emassan» filmining rejissyori kim?

- a) Nabi Rahimov;  
b) Abbos Rahimov;  
c) Shuhrat Abbosov.

5. O'zbekiston oltin ishlab chiqarish bo'yicha nechanchi o'rinda turadi?

- a) 5;  
b) 6;  
c) 7.

6. «Chippolinoning sarguzashtlari» asarining muallifi kim?

- a) Janni Rodari;  
b) Mark Tven;  
c) Xans Kristian Andersen.

Oynisa

ESHMURODOVA,

Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi 59 - maktab o'quvchisi.

ARALASH

TEST

## SAHRO, TARVUZ, YAPROQ

(Uch so'z)

O'z yurtidan ayro tushgan inson uchun o'z vatanining so'ngsiz va suvsiz sahrolari orombaxsh bog'lari, yam-yashil maysalari-yu, gulu lolalari, polizlarda g'arq pishgan qovun-

t a r v u z l a r i - y u  
h a n d a l a k l a r i n i n g  
x u s h b o ' y h i d l a r i , b i r -  
b i r i g a a l l a n i m a l a r d e b  
s h i v i r l a y o t g a n

yaproqlari, tog'lari ortidan oxista oqarib kelayotgan tonglari-yu ufqqa bosh qo'yayotgan quyoshning go'zalligi o'ziga yurtning osmono'par binolariyu zamonaviy texnikalari, ko'chalarining sarishtaligi va kengligidan ham azizroq va sevikliroqdir.

Dilafro'z G'ULOMOVA,  
Toshkent viloyati, Bo'ka tumani.

## ENG CHUQUR YER

Yer sharidagi eng botiq-chuqur yer Marian yer botig'i hisoblanadi. Uning chuqurligi 11022 metr bo'lib, shimoldan Kiril orollaridan janubga qarab cho'zilib yotgan eng qadimgi yer yorig'iga joylashgan. Marian botig'ining g'arb tomonida marjon shaklida joylashgan, shimoldan

janubga qarab tizilishib yotgan 15 ta orol ham bor. Ularning nomlari ham Marian orollari deb ataladi. Marian botig'ining chuqurligi 1957 yilda Rossiyaning «Vityaz» kemasidagi ilmiy xodimlar tomonidan o'lchangan.

S.ERGASHEVA.

Eng, eng, eng...

Quruqlikda yashaydigan eng katta va eng og'ir hayvon Afrika fili bo'lib, uning og'irligi o'rtacha 4-5 tonnaga yetar ekan.

XXX

Suvdagi eng katta va og'ir hayvon ko'k kit bo'lib, uning og'irligi 150 tonnaga, uzunligi esa 33 metrga yetar ekan.

XXX

Eng katta qush bu tuyaqushdir. Uning o'rtacha og'irligi 90-100 kg. U soatiga 120 km. tezlikda yugurar ekan.

XXX

Eng kichik qush kalibra bo'lib, u Avstraliyada yashaydi. 1 soniyada 40 marotaba qanot qoqadigan bu qush qovoqaridan sal kattaroq ekan.

XXX

Dunyodagi eng balandga sakraydigan hayvon yaguar bo'lib, u 6-7 metr balandlikka sakrar ekan.

O'qi, qiziq!

O'rdakburunning ajoyib hislati bor ekan. U ham sut emizuvchilar, ham tuxum qo'yuvchilar turkumiga kirarkan.

Tuxumidan chiqqan bolalarini emizib katta qilarkan.

## ASALXO'R QUSH

Afrikada uncha katta bo'lmagan asalxo'r qush yashaydi. U o'rmonda asalarining uyasini ko'rib qolsa, arilar hujumidan qo'rqib, yaqin qishloqqa uchib borar ekan, odamlar oldida u yoqdan bu yoqqa sakrab, har xil qiliqlari bilan o'zini ko'rsatar ekan. Buni sezgan odamlar qushning ketidan ergashib, o'rmonga borisharkan. U ko'rsatgan joydan asalni olib bo'lishguncha bir chetda jimgina tomosha qilib o'tirar, so'ngra asal qoldiqlarini mazza qilib yer ekan.

Shahzoda RIZAYEVA,  
Orom nomli bog'chamaktabning 4 - «E» sinf o'quvchisi.

# Bizning to'garak



## BIR DO'STING BO'LSA..

Bir do'sting bo'lsa,  
Yoningda yursa.  
Og'ir kuningda,  
Yelib-yugursa.  
Bir do'sting bo'lsa,  
Maqsadi aniq.  
Xira kuningni,  
Qilsa u tiniq.  
Bir do'sting bo'lsa,  
Yoningda har dam.  
Noxush kuningni,  
Qilsa shod-hurram.  
Chin do'sting bo'lsa,  
G'amlaring bo'lmas.  
Gar yomon bo'lsa,  
Ko'ngling hech to'lmas.

*Baxtiyor YOQUBOV,  
Qashqadaryo viloyati, Muborak  
tumanidagi Said Jo'rayev nomli  
maktabning 9-sinf o'quvchisi.*

## DADAM ISHDAN KELSALAR

Dadam ishdan keliboq,  
Singlimni o'pib qo'yar.  
Singlim-chi, yer tagidan,  
Menga bir qarab olar.  
-Ko'rdingmi?-der so'ngra u,  
Pirpiratib ko'zini.  
Dadam yaxshi ko'radi,  
Men kenjatoy qizini.  
Nima bo'lardi axir,  
Meni ham bir suysalar.  
Singilchamdek erkalab,  
Bir bor o'pib qo'ysalar.

*Dilobar MIRSOATOVA,  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
187 - maktabning 6 - «D» sinf  
o'quvchisi.*



## XAYOLPARAST

-Men-chi, katta bo'lsam gar,  
Bo'laman mashhur zargar.  
Bu kun keladi qachon,  
Xomush tortar Olimjon.  
Xayolparast bolakay,  
Shunday xayol suradi.  
Tezroq katta bo'lishni,  
Orzu qilib yuradi.

*Shahnoza ILHOMOVA,  
Toshkent shahar, Akmal  
Ikromov tumanidagi  
228 - maktabning 6-sinf  
o'quvchisi.*



## DO'STINGA

Menga boqib turar qaro ko'zlaring,  
Ulardan uqaman ma'no, so'zlaring.  
Ko'zlarim izlaydi sening izlaring,  
Do'stim, diydoringni sog'inganim on.  
Qara, samoda ham yulduzlar bisyor,  
Ular porlaganda yorishar choryor,  
Kunlarimiz bo'lsin shodon, baxtiyor,  
Do'stim, yonimda bo'l hamisha, har on.  
Sezaman so'zingda quyoshning taftin,  
Taqdirmi ko'raman xuddiki kaftday.  
Beg'ubor hislarim aldama faqat,  
Chunki orzularim yurakda qat-qat.


*Zilolaxon ABDULLAYEVA,  
Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi  
20 - ixtisoslashgan maktab-internat  
o'quvchisi.*



## KITOB O'QING, DO'STLARIM!

Kitob o'qiylik do'stlar,  
Kitobda ko'p ma'no bor.  
Katta bo'lsak albatta,  
Omad bo'lar bizga yor.  
Kitoblarda o'qiyimiz,  
Dostonlaru ertaklar.  
Ular esa bizlarni,  
Yaxshilikka yetaklar.  
Kitobda bordir turfa,  
Rivoyatu hikoya.  
Biz ularni qunt bilan,  
O'qib chiqsak kifoya.

*Muyassar ILHOMOVA,  
Poytaxtdagi  
228 - maktabning 7-«A» sinf  
o'quvchisi.*



*Toshkent viloyati, Parkent  
tumanidagi 35 - maktabning 5- «A»  
sinf o'quvchisi Madina  
SAIDMURODOVA «O'zbek xalq  
ertaklari» qahramonlari rasmini  
chizib yuboribdi.*

## DADAJONIM

Mening dadam shifokor,  
Yurt ishiga fidokor.  
«Yaxshi o'qi!» der har dam,  
Mening mehribon dadam.  
Zo'r shifokor bo'lishga,  
Dadamlarga o'xshashga.  
Intilaman men doim,  
Nasihatin oqlashga.

*Dilnoza RAHMONOVA,  
Samarqand viloyati, Oqdaryo  
tumanidagi 32 - o'rta maktabning  
7 - «A» sinf o'quvchisi.*

## MAQOLLAR

Yozda g'amlasang,  
Qishda yamlaysan.

Ter to'kib ishlasang, osh yeysan,  
Dangasalik qilsang, tosh yeysan.

xxx



Samarqand viloyati, Urganch tumanidan  
Nargiza JALHOVA siz sevib tomosha  
qiladigan muhtim mahramondarini  
tasvirladi.

## TEZ AYTISHLAR

Kuz kelganda meva pishdi,  
Rosa pishib, yerga tushdi.

xxx

Oydin oyga boqdi,  
Oy Oydinga boqdi.  
Dildora EGAMBERDIYEVA,  
Toshkentdagi 312 - maktabning  
5 - «A» sinf o'quvchisi.

## MAKTABGA BIR NAZAR

Xo'sh, aziz tengdoshlarim, o'qishlar qalay? Birinchi chorakni ham «eson-omon» tugatib oldingizmi? Bu yog'i endi maz-za! Bir hafta yallo qilib yurasiz, to'g'rimi? Zerikib qolamiz-ku, deysizmi? Unda «Tong yulduzi»ni o'qing. Gazeta sahifalarida maktab hayotiga oid ajoyibu g'aroyib lavhalar, «qaynoqqina» yangiliklar, kulguli latifalar, tengdoshlaringiz ijodidan namunalar, ...eh-he, sanayversam, vaqtimiz yetmaydi, xullas, juda ko'p narsalar o'qishingiz mumkin.

Bugun men ham sizning nigohingiz bilan jonajon maskanimizga bir nazar tashlamoqchiman:

O'quvchi - yarim kunlik  
asir.

Direktor va o'qituvchilar - Ali bobo va  
qirq qaroqchi.

Sinf jurnali - asirlar ro'yxati.

Kundalik daftar - sotqinlik vositasi.

Doska - hukm taxtasi.

Chizg'ich - kaltak cho'p.

Musiqqa darsi - «Alla, alla, uxla-yo...»

Tanaffus - «Eh, bevafo ozodlik!»

Kimyo darsi - doshqozondagi sumalak.

Sinf rahbari - qozi janoblari.

Muallimning ko'zoynagi -

«Haqiqat oynasi».

Kamola UBAYEVA,

Sobir Rahimov tumanidagi 249 - maktabning

9-sinf o'quvchisi.

Har bir xalqning o'z ertaklari, sehrlilari mamlakatlar to'g'risida o'z tasavvuri bo'ladi. Rus xalq ertaklarida bu mamlakatda sut daryolari oqadi. O'zbek

xalqida Susanbil. Nemis xalq ertaklarida esa bu mamlakat «Shlarafiya» yoki «Shlarafenland» deb ataladi.

Bu mamlakatning nomini xaritadan topib bo'lmaydi, uning qayerdaligini ham hech kim bilmaydi. Ammo, u yerda yashashni ko'pchilik orzu qiladi. Nima uchun, deysizmi? Chunki u yerda uylar, eshiklar, devorlar pirogdan yasalgan. Har bir hovli qovurilgan kolbasa bilan o'rab olingan. Daraxtlarda nonlar pishib, daryolarida sut oqadi. Daryoda esa qovurilgan baliqlar shundoqqina

sutning yuzasida suzib yuradi. Haqiqiy shlaraf (bu mamlakat aholisi shunday nomlanadi) «Vst! vst!» deb xushtak

## SHLARAFENLAND HAQIDA ERTAK



chalsa kifoya, baliqlar o'zlari uning qo'liga kelib tushishadi.

U yerda hatto qushlar ham qovurilgan holda uchib yurishadi. Qip-qizil qilib qovurilgan g'oz, o'rdak,

xo'rozu tovuqlar don terib yurishadi. Qovurilgan cho'chqa bolasi beliga sanchilgan pichog'i bilan aylanib yuradi. Har kim undan xohlaganicha kesib yeyaverishi mumkin. Pishloqlar xuddi toshlardek yerda sochilib yotadi. Asal yomg'irini shlarafilar juda xush

ko'rishadi.

O'rmonlaridagi daraxtlarda chiroyli-chiroyli ko'ylaklar, yubkalar, paltolar, shimlar o'sib yotadi. Kimga yangi kiyim kerak bo'lsa, bemalol olaveradi.

Bu mamlakatda mehnatsevar kishilarga joy yo'q. Qo'lidan faqat yeyish, ichish, uxlash, raqs tushish keladiganlar vazirlik, ulardan ham yalqovroq kishilar qirollik taxtiga o'tirishadi. Butun mamlakat kolbasa-yu sosiskalardan iborat baland devor bilan o'rab olingan. Kimki ichkariga kirmoqchi yoki tashqariga chiqmoqchi bo'lsa, avval shu devorni yeb tugatishi lozim bo'ladi.

Faxriddin XOLIQOV  
tarjimasi.

Namangan viloyati,  
To'raqo'rg'on tumani, Katta  
qo'rg'oncha qishlog'i.


## SICHQONCHA

Savollarga javob topib, sichqonchaning iniga borishiga yordam bering.

1. «Yoshlar» telekanalidagi axborot dasturi.
2. Taxta silliqlovchi asbob.
3. Kichkina dekcha, ichi to'la mixcha (topishmoq).
4. Anor, xurmo, olma, behi - ...
5. Ayvon.
6. O'zbekistondagi viloyat.
7. Rost emas.
8. Hasharot.
9. Sudralib yuradi.
10. Non yopuvchi odam.
11. Yigitlar ismi.
12. Qulfning ukasi.
13. Peshonaga yozilgan.
14. San'at turi.
15. Muhabbat.
16. Kir, iflos.
17. Oliy o'quv yurti o'quvchisi.
18. Yirtqich hayvon.
19. Buyuk adabiyotshunos shoira.
20. Mutafakkir shoir.
21. Haqiqatgo'y.
22. Aft, bet.
23. Non turi.
24. Yigitlar ismi.

Tuzuvchi: Hulkar QOSIMOVA,

Surxandaryo viloyati, Muzrabot tumani, «Qo'ng'iroq» jamoa xo'jaligi.



## Tengdoshlaring ijodi

Kuz kelibdi. Don-dunlar yig'ilib, ularni chaqiribdi. Chumolilar unga yordam omborlarga - tashila boshlanibdi. berib, donni iniga eltishibdi...

Chumolilarning yumushlari yanada Kunlardan bir kuni bir chumoli suv ko'payibdi.

-Harna bitta **KUCH INOQLIKDA** ichaman deb, oqib don bo'lsa ketibdi. To'lqinlar

ham inimga olib borib, qish uni goh qirg'oqqa, goh ariq g'amini yey, - deya o'rtasiga oqizib ketayotgan ekan.

o'ylanib ketayotgan bir Chumoli dod-voy solib, chumoli bug'doy yordam so'rabdi. Uning boshog'ini ko'rib qolibdi. ovozidan sergaklangan


Undan bitta donni arang ajratib do'stlari darhol suvga olib, ko'tarmoqchi bo'libdi.

Harchand urinmasin, uni sudray uzun hashak poyasini tashlashibdi. Olmabdi. Atrofga qarabdi, aksiga olib Oqib borayotgan chumoli bir amallab hashak poyasiga chiqib olibdi va qirg'oqqa

birorta o'rtog'i ko'rinmabdi. Endi nima chiqib, o'rtoqlari bilan birga o'rmalab qilsam ekan? - deb o'ylanib turgan ekan, ketibdi.

uzoqdan chumolilar to'dasi ko'rinib Qissadan hissa shuki, kuch birlikda, qolibdi. inoqlikda.

- Do'stlarim, bu yoqqa kelinglar, - deb Malika RAHMONBEKOVA.



Ota yuring - oltin beshing  
**TONG Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON  
MATBUOT VA AXBOROT  
AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:  
Umida ABDUAZIMOVA  
TAHRIR HAY'ATI:  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib sahilandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

«Sharq» nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 46.291  
nusxada ofset usulida bosildi.  
Korxonaning manzili: «Buyuk  
Turon» ko'chasi, 41.  
Buyurtma № F-961  
Gazetani  
Ma'suda IRISNAZAROVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Muharrama PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi  
№ 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08  
144-63-75